

## HUQUQIY MATNLARDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

<https://zenodo.org/records/17731900>

*Raxmatova Bahora Ibodulla qizi,  
Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada huquqiy matnlarning sintaktik qurilishi va ularning huquqiy aniqlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Huquqiy nutq boshqa funksional uslublardan qat'iy va murakkab gap tuzilmalari bilan ajralib turadi. P. M. Tiersma va R. C. Wydick qarashlariga tayangan holda ingliz tilidagi ergash gapli murakkab tuzilmalar, passiv konstruksiyalar va qat'iy modal fe'llar, shuningdek, o'zbek tilidagi shartli ergash gaplar va izohli birliklarning huquqiy aniqlikni mustahkamlashdagi roli ochib beriladi. Sintaksis darajasidagi tahlil huquqiy normalarning til vositasida qanday ifodalanishi va ularning kommunikativ-pragmatik vazifalarini yoritishga xizmat qiladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** huquqiy matn, sintaksis, yuridik diskurs, aniqlik, pragmatika.

**Abstract.** This article explores the syntactic structures of legal texts and their role in ensuring legal clarity and precision. Legal discourse differs from other functional styles by its rigid and complex sentence constructions, which are intended to minimize ambiguity and provide accurate interpretation. Drawing on the works of P. M. Tiersma and R. C. Wydick, the study highlights how long, multi-clause sentences and passive constructions in English, as well as conditional and explanatory clauses in Uzbek, serve to reinforce legal certainty. The analysis demonstrates that syntax not only conveys legal norms but also determines their communicative-pragmatic functions, ensuring consistency in legal practice.

**Keywords:** legal texts, syntax, legal discourse, precision, pragmatics.

**Kirish.** Huquqiy matnlar o'zining murakkab, aniq va qat'iy tuzilishi bilan boshqa funksional uslubdagi matnlardan tubdan farq qiladi. Bunday matnlarning asosiy vazifasi - huquqiy normalarni ifodalash, fuqarolar va tashkilotlarning huquq hamda majburiyatlarini belgilash, shuningdek, ushbu normalarni amaliyotda qo'llash uchun zarur shart-sharoit yaratishdir. Shu bois, huquqiy matnlarning sintaktik qurilishi tasodifiy emas, balki yuridik mazmuni noaniqliksiz, qat'iy va bir ma'noda ifodalashga xizmat qiladi. Sintaksis darajasida tanlangan birliklar huquqiy normalarning izchil talqin qilinishini ta'minlash bilan birga, huquqiy amaliyotda xatolarga yo'l qo'ymaslik vazifasini ham bajaradi.

Tilshunoslikda ushbu masala keng tadqiq qilingan bo'lib, yuridik lingvistika vakillari huquqiy matnlardagi sintaktik birliklarning o'ziga xosligi haqida ko'plab ilmiy xulosalar bergan. Masalan, P. M. Tiersma shunday deydi: *“Legal language is characterized by lengthy, complex sentence structures that aim to eliminate ambiguity”*. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, huquqiy matnlarda uzun va murakkab

gaplarning qo‘llanishi ularni tushunishni qiyinlashtirishi mumkin bo‘lsa-da, aslida bu sintaktik qurilishning maqsadi - huquqiy noaniqlikni oldini olishdir.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy matnlarning sintaktik birliklari ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan, ularning murakkabligi huquqiy aniqlikni ta‘minlaydi; ikkinchi tomondan esa, ular huquqiy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlarini shakllantiradi. Bu jihatni R. C. Wydick ham ta‘kidlab o‘tadi: *“Lawyers often draft provisions in such a way that every possible interpretation is covered, which results in highly complex sentence structures”*. Demak, murakkab sintaktik qurilish huquqiy matnlarning eng muhim xususiyati bo‘lib, ularning to‘g‘ri talqin qilinishi va amalda qo‘llanishini kafolatlaydi.

O‘zbek tilidagi huquqiy matnlar ham mazkur umumiy tamoyillardan mustasno emas. Ular ko‘pincha shartli ergash gapli qo‘shma gaplar, majhul nisbatdagi kesimlar va izohli konstruksiyalar orqali quriladi. Bu xususiyat, bir tomondan, huquqiy normalarning qat‘iyligini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ularni turlicha talqin qilish imkoniyatini kamaytiradi. Ingliz tilidagi huquqiy matnlarda esa uzun va ko‘p bo‘g‘inli ergash gaplar, passiv konstruksiyalar, shuningdek, qat‘iy modal fe‘llar (*shall, must, may*) keng qo‘llanadi.

Huquqiy sintaksisning asosiy talabi - aniqlik va qat‘iylkdir. Bu jihatni R. C. Wydick quyidagicha izohlaydi: *“Lawyers often draft provisions in such a way that every possible interpretation is covered, which results in highly complex sentence structures”*. Ya‘ni, huquqshunoslar huquqiy normalarni barcha ehtimoliy talqinlardan himoyalash maqsadida uzun va murakkab gaplardan foydalanadilar.

O‘zbek tilidagi huquqiy matnlarda asosan:

– **Shartli ergash gapli qo‘shma gaplar** (masalan: *Agar shaxs sud qarorini bajarmasa, u qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi*);

– **Majhul nisbatdagi kesimlar** (*Jazoni ijro etish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi*);

– **Izohli konstruksiyalar** (*Fuqarolarning shaxsiy huquqlari, jumladan, yashash joyini erkin tanlash huquqi kafolatlanadi*).

Ingliz huquqiy matnlarida esa quyidagi sintaktik birliklar keng tarqalgan:

– **Passiv konstruksiyalar** (*The contract shall be deemed void if obtained by fraud*);

– **Modal fe‘llar** (*shall, must, may*), ular majburiyat va ruxsat darajasini ifodalaydi;

– **Bir necha bo‘lakli ergash gapli tuzilmalar** (*If any person who is a party to the agreement fails to comply with the obligations, the agreement shall be terminated*).

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida quyidagicha murakkab sintaktik tuzilmalar uchraydi: *“O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.”* Ingliz huquqiy matnidan esa: *“The Minister conducting a review under this section must prepare a report on the result of the review and lay a copy of it before each House of Parliament.”* (UK Constitutional Reform Act, 2005).

Har ikkala misolda ham uzun va qat‘iy sintaktik tuzilmalar ishlatilgan bo‘lib, ularning vazifasi huquqiy noaniqlikni bartaraf etishdir.

Huquqiy matnlarda sintaksis nafaqat grammatik shaklni tashkil etadi, balki lingvopragmatik jihatdan ham muhim vazifani bajaradi. Sintaksisning bu funksional xususiyati huquqiy matnlarning asosiy kommunikativ maqsadlari – aniqlik, qat’iylik va talqinning bir xil bo‘lishini ta’minlash bilan bog‘liqdir. Gaplarning murakkab sintaktik tuzilmalarda ifodalanishi orqali qonun normalarining izchil qo‘llanishi ta’minlanadi, talqin imkoniyatlari cheklanadi va huquqiy mas’uliyatning aniqligi kafolatlanadi.

Avvalo, murakkab sintaktik qurilish qonun normalarining yagona va izchil qo‘llanishini ta’minlaydi. Qonunlarda qo‘llaniladigan ergash gapli konstruksiyalar turli vaziyatlarda bir xil talqinni kafolatlab, sud amaliyotida normaning turlicha sharhlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 21-moddasida quyidagicha jumla mavjud: *“Agar shaxs o‘zining xatti-harakatlari (harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko‘ra bilgan bo‘lsa va u oqibatlarining kelib chiqishini istamagan holda, lekin bunga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday qilmish jinoyat hisoblanadi.”* Bu misolda ergash gaplar orqali norma qat’iy belgilangan va talqinga imkon qoldirilmagan.

Shuningdek, murakkab va aniq sintaktik qurilish matnni talqin qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Qonun matni qanchalik qat’iy shakllangan bo‘lsa, uni turlicha izohlash ehtimoli shunchalik kamayadi. Ingliz huquqiy matnlarida ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi. Masalan, Buyuk Britaniya qonunchligidagi *Contracts Acts* dan olingan jumlada shunday deyiladi: *“A term of a contract may be enforced by a person who is not a party to the contract if the contract expressly provides that he may, or if the term purports to confer a benefit on him.”* Bu yerda uzun ergash gapli murakkab tuzilma orqali norma izchil va qat’iy shaklda berilgan.

Bundan tashqari, huquqiy matnlarning sintaksisi huquqiy mas’uliyatning aniq belgilanishiga xizmat qiladi. Majhul nisbat va qat’iy modal fe‘llar (shall, must, lozim, shart) orqali majburiyat va javobgarlik aniq belgilanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining *“Ta’lim to‘g‘risida”*gi Qonunida quyidagicha jumla bor: *“Davlat ta’lim muassasalari o‘quvchilarga qonunda belgilangan tartibda bepul ta’lim berishi shart.”*

Ingliz huquqiy matnlarida esa majburiyat odatda modal fe‘llar yordamida ifodalanadi. Masalan, Buyuk Britaniya qonunchiligidan olingan quyidagi jumlada buni yaqqol ko‘rish mumkin: *“The Minister shall prepare a report on the result of the review and lay a copy of it before each House of Parliament.”*

Bu holatni mashhur tilshunos D. Crystal ham ta’kidlab, shunday deydi: *“Legal English is a style designed to achieve maximum precision and minimize interpretative flexibility”*. Ya’ni, huquqiy ingliz tili o‘zining sintaktik murakkabligi bilan birinchi navbatda aniqlikka erishishni, ikkinchi tomondan esa turlicha talqin qilish imkoniyatlarini maksimal darajada kamaytirishni maqsad qiladi.

**Xulosa.** Huquqiy matnlarning sintaktik qurilishi ularning huquqiy aniqlik, qat’iylik va pragmatik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbek va ingliz huquqiy matnlarida ko‘plab umumiyliklar mavjud bo‘lsa-da, ingliz tilida murakkab ergash gapli tuzilmalar va qat’iy modal fe‘llar ko‘proq qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa shartli ergash gapli qo‘shma gaplar hamda majhul nisbat asosiy sintaktik vosita hisoblanadi. Huquqiy matnlardagi sintaktik birliklarni tahlil qilish, huquqiy

nutqning kommunikativ-pragmatik mexanizmlarini anglash imkonini beradi va amaliyotda huquqiy normalarning aniq qo‘llanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Crystal, D., & Davy, D. Investigating English Style. London: Routledge, 2013. – 272 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 98 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adolat, 1994. – 352 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent: Adolat, 1997. – 40 b.
5. Raxmatova, B. I. q. Legal Texts and Their Functional Analysis in Applied Linguistics. 2025. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15464154>.
6. Tiersma, P. M. Legal Language. Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 328 b.
6. United Kingdom. Constitutional Reform Act. London: The Stationery Office, 2005. – 184 p.
7. Wydick, R. C. Plain English for Lawyers. Durham, NC: Carolina Academic Press, 2005. – 212 b